



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi

*O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti, Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

Surayyoxonibroximova@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada adabiyot fanini o'qitishda modulli ta'lism texnologiyasidan foydalanishning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil etilgan. Modulli yondashuvning zamonaviy ta'limdag'i o'rni, uning o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi imkoniyatlari keng yoritilgan. Xususan, adabiyot darslarining o'ziga xos jihatlari, badiiy matn bilan ishslashning murakkabliklari va ularni yengillashtirishda modul asosidagi darslarning roli ko'rsatib o'tilgan. Maqolada modulning tuzilmasi, mazmuni, didaktik birliklari hamda baholash mezonlari haqidagi fikrlar misollar orqali olib berilgan. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil ishslash malakasini oshirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rgatish, darsda individual yondashuvni yo'lga qo'yish kabi jihatlar modulli ta'limning ustun tomonlari sifatida ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari adabiyot darslarini yanada interaktiv, mazmunli va samarali tashkil etish uchun modulli yondashuvdan foydalanish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: modulli ta'lism, adabiyot darsi, pedagogik texnologiya, o'quv jarayoni, o'quvchi faolligi, mustaqil ta'lism, zamonaviy ta'lism usullari, modul struktura, badiiy matn, didaktik birlik, individual yondashuv.

Аннотация В статье анализируются теоретические основы и практическое значение использования модульной образовательной технологии в преподавании литературы. Широко освещена роль модульного подхода в современном образовании и его потенциал для всестороннего развития личности учащегося. В частности, освещаются особенности уроков литературы, сложности работы с художественными текстами, роль модульных уроков в их организации. В статье на примерах поясняются структура, содержание, дидактические единицы и критерии оценки модуля. Также в качестве преимуществ модульного обучения выделяются такие аспекты, как совершенствование навыков самостоятельной работы учащихся, обучение их критическому и творческому мышлению, формирование индивидуального подхода в классе. Результаты исследования обосновывают необходимость использования модульного подхода для организации уроков литературы более интерактивным, содержательным и эффективным способом.

Ключевые слова: модульное обучение, урок литературы, педагогическая технология, процесс обучения, деятельность учащихся, самостоятельное обучение, современные методы обучения, модульная структура, художественный текст, дидактическая единица, индивидуальный подход.

Abstract This article analyzes the theoretical foundations and practical significance of using modular educational technology in teaching literature. The role of the modular approach in modern education, its potential for the comprehensive development of the student's personality are widely covered. In particular, the specific aspects of literature lessons, the complexities of working with literary texts, and the role of modular lessons in facilitating them are shown. The article reveals ideas about the structure, content, didactic units, and assessment criteria of the module through examples. Also, aspects such as improving students' independent work skills, teaching critical and creative thinking, and establishing an individual approach in the lesson are indicated as advantages of modular



education. The results of the study justify the need to use a modular approach to organize literature lessons more interactively, meaningfully, and effectively.

Keywords: modular education, literature lesson, pedagogical technology, learning process, student activity, independent learning, modern teaching methods, modular structure, literary text, didactic unit, individual approach.

Zamonaviy ta'larning rivojlanishi, jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, maktab va universitetlarda ta'lim faoliyatining asosiy yo'nalishlarini o'zgartirdi. Hozirgi pedagogik jarayonining eng muhim jihatlaridan biri - ta'lim texnologiyalarining samaradorligidir. O'qitishni bosqichlarga bo'lish, turli metod va usullarni uyg'unlashtirish, multimedia texnologiyalaridan foydalanish va o'qituvchining mahorati - bularning barchasi zamонавиy о'qitish texnologiyalarini joriy etish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Bunda nafaqat ta'lim mazmuni, balki ta'lim axboroti strukturalari va uni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi uchun zarur bo'lgan shakllar ham o'zgaradi, ayniqsa modulli o'qitish tizimida. Ko'plab universitetlar va maktablarda so'nggi yillarda modulli o'qitish texnologiyasi qo'llab-quvvatlanmoqda, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Modulli o'qitishning boshqa tizimlardan farqi uning maqsadi, mazmuni, shakllari va metodlari, shuningdek, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro faoliyat shakllarida ko'rindi. Modul — bu bir fan bo'yicha mantiqiy va tarkiblangan ta'lim dasturining asosiy birligi. U mustaqil bo'limlar, amaliy mashg'ulotlar, texnologik xaritalar, adabiyotlar, nazorat bloklari va hisobot shakllarini o'z ichiga oladi. Modulning tarkibi universitet va maktabning o'ziga xos xususiyatlari va davlat standartlariga mos ravishda tuziladi. Modulli o'qitish tizimi, shuningdek, kredit-modul tizimi :rasida ta'lim berishga asoslanadi va dasturlashtirilgan ta'limga o'xshash bo'ladi. Modulli ta'lim hozirgi vaqtida ko'plab mamlakatlarda, xususan, G'arb va Osiyo mintaqalarida eng ommabop va tan olingan o'qitish uslublaridan biridir. U biologiya, tibbiyot, aniq va ijtimoiy fanlar hamda kompyuter sohalarida keng qo'llaniladi. Bu yondashuv o'quvchilarning individual farqlarini hisobga olgan holda har bir shaxsning o'z holatida rivojlanishini ta'minlaydi. Modulli uslub an'anaviy uslubga nisbatan o'quvchiga yo'naltirilgan, mustaqil va yozuvsiz o'rganish imkonini beradigan yondashuvdir. Moduldan foydalanish faol o'rganish, tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, bu o'qituvchilarga formativ baholash o'tkazish imkonini beradi.

Ko'plab sohalar qatori adabiyot darslarida ham modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'zining bir qancha afzalliklariga ega. Adabiyot darslarida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish, talabalar uchun matnni chuqur o'rganish va tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi. Modullar yordamida o'quvchilar adabiy asarlarga yaxshiroq yondashib, ularning ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstini to'liq anglashlari mumkin. Shuningdek, bu metod, adabiyot darslarini yanada qiziqarli va interfaol qilishga imkon beradi. Adabiyot o'qituvchilari o'z dars dasturini shaxsiylashtirishi va moslashtirishi kerak. Moslashtirilgan modullardagi bilimlar o'quvchilarga mustaqil, mazmunli va



chuqur shaxsiyatni shakllantirishda yordam beradi. Shuningdek, dars modullari asosiy matn bilan bevosita bog'langan bo'lishi kerak va ular bilan mos keladigan mashq va faoliyatlarni o'z ichiga olishi lozim. Moduldagi faoliyatlar o'quvchilarni o'ylashga undashi va ularning materialni qay darajada o'zlashtirganini aniqlashga yordam berishi kerak. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, moduldan foydalanish darsda bir qancha afzalliklarga ega:

- o'qituvchiga darslar, bo'limlar va dasturlar tuzishga asos yaratadi;
- zarur ma'lumotlarni qisqacha taklif etadi;
- o'quvchiga kerakli resurslarni mustaqil ravishda topish imkonini yaratadi;
- barcha o'quvchilar uchun umumiy yo'l xaritasini beradi;
- rasmlar, grafikalar va boshqa tushuntiruvchi vositalarni o'z ichiga oladi;
- savol va tahlil vositalarini taqdim etadi;
- o'qituvchini material tayyorlashdan ozod qiladi va vaqtini dars tayyorlashga ajratishga imkon beradi.

Adabiyot darslarida modulli ta'lif texnologiyasidan foydalanilganda esa darslikdagi asarlarni va ulardan ko'zlangan maqsadlarni chuqur anglashga ko'mak beradi. O'zbek adabiyoti darslarida modulli ta'lifdan foydalanish bir nechta pedagogik va tarbiyaviy afzalliklarga ega. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarda o'quvchilarning ijodiy yondashuvini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Adabiyot fanining badiiy va estetik xarakteri o'quvchilardan fikr bildirish, obrazli tafakkur qilish, badiiy tahlil ko'nikmalarini talab qiladi. Modul asosida berilgan topshiriqlar (esse yozish, qahramon obrazini solishtirish, davr va muallifni taqqoslash) bu ko'nikmalarni rivojlantiradi. Masalan, ijtimoiy muammolarga bag'ishlangan esselar yozish topshirig'i o'quvchidan har tomonlama mukammal fikrlashni, yuqori so'z boyligiga ega bo'lishni talab qiladi. Shuningdek, darsliklardi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlardan mahorat bilan foydalanish o'quvchilarning tarbiyaviy o'sishiga asosiy omil hisoblanadi. Adabiyot asarlari orqali o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy qadriyatlar singdiriladi. Modulda axloqiy muammolarga :r muhokamalar, guruhli ishlanmalar orqali bu maqsadga erishiladi. O'qituvchining oldida turgan vazifalardan yana biri o'quvchilarning darsda faol bo'lishini ta'minlash modulli ta'lif texnologiyasi asosida o'z yechimini topa oladi. Modulda o'quvchining mustaqil ishlashi, izlanish olib borishi, internet, lug'at, badiiy adabiyotdan foydalanishi talab qilinadi. Bu esa o'z navbatida bilimga qiziqishni kuchaytiradi. Agar modulga tayangan holda dars o'tilganda, dars so'ngida o'quvchining baholanishi ham shaffoflikka erishadi. Modul oxirida o'quvchi o'z bilimini mustaqil baholaydi, o'qituvchi esa mezonlar asosida aniqlik bilan baho beradi.

Modul dastur kompleks didaktik maqsaddan (KDM) va bu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi modul bloklari yig'indisidan iborat. Modul dasturini ishlab chiqish uchun asosiy g'oyalarni ajaratib olish va blok-modullarda strukturalashtirish, so'ngra kompleks didaktik maqsadlarni shakllantirish talab etiladi. Kompleks didaktik maqsadlar modul-bloklarining maqsadlariga, ya'ni integrativ didaktik maqsadlarga (IDM) va xususiy didaktik maqsadlarga (XDM) bo'linadi, uni esa o'z navbatida o'quv elementlari tashkil etadi [9]. Modul



dasturlarning maqsadi albatta malakali mutaxassisni yetishtirishga xizmat qiladi. Modul dasturning maqsadini tuzishda ana shu mutaxassisga qanday talablar tizimi qo'yilayotgan ekanini aniqlab olishdan boshlanadi. Modul yaratish bosqichlarining Adabiyot faniga mos moduli mavjud bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerak:

- 1) Mavzu nomi va maqsadi;
- 2) Kutilayotgan natijalar;
- 3) Asosiy tushunchalar va muhim faktlar;
- 4) Mashg'ulot mazmuni;
- 5) Mustaqil ish uchun topshiriqlar;
- 6) Muammoli savollar va fikr-mulohaza mashqlari;
- 7) Yakuniy test yoki yozma ish.

Modulli ta'lif texnologiyasi bo'yicha izlanishlar olib borgan professor C.M.Amboyan (2015) fikriga ko'ra, modulli ta'lif orqali adabiyot darslarida nafaqat bilim berish, balki tarbiyalash, dunyoqarashni shakllantirish, tahliliy fikrlashni rivojlantirish mumkin [1]. O'zbek adabiyotidagi asarlar orqali milliy qadriyatlar targ'ib qilinadi, o'quvchi o'zligini anglaydi. Bu esa modul asosida olib borilgan o'qitish jarayonini yanada samaraliroq qiladi. Modulli ta'lif texnologiyasini adabiyot darslarida qo'llash orqali asarning mavzu va motivlarini tahlil qilishga erishiladi. Modulli ta'lif texnologiyasini qo'llash orqali talabalarga adabiy asarlar bo'yicha turli xil modullar taklif etiladi. Har bir modul muayyan mavzu yoki motivni o'z ichiga olgan bo'lib, talaba uni mustaqil ravishda yoki guruhda tahlil qiladi. Masalan, Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini o'rganishda o'quvchilarga "Xamsa" dagi har besh dostonning o'ziga xos jihatlarini o'rganish va ularni bir-biriga taqqoslash topshirig'i beriladi. Modulning nazariy qismida dostonlarning yaratilish tarixi, asosiy g'oyasi haqida tushunchalar beriladi. So'ngra tahliliy topshiriqlarga o'tiladi. Bunda o'quvchilardan obrazlar xarakteristikasini ochib berish, xarakterlardagi urg'u berilgan jihatlarga e'tibor qaratiladi. Uchinchi bosqichda o'quvchilardan ushbu dostonlardagi voqeа-hodisalarga shaxsiy munosabatlari so'raladi. Dars so'ngida o'qituvchi tomonidan testlar va savollar yordamida o'quvchi bilimiga baho beriladi. Natijada o'quvchilar har bir dostonni chuqur va atroficha tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, modulda tahlil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar ham mujassamlashgandir. Modulli ta'lif metodining asosiy maqsadlaridan biri talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Har bir modul o'z-o'zini baholashni va tahlilni rag'batlantiradi, bu esa talabalarga matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Masalan, o'quvchi "Jadidchilik adabiyoti" mavzusida o'rganilgan asarlar haqida o'zining tanqidiy mulohazalarini keltirishi kerak. Modullar o'quvchida nafaqat adabiyot, balki ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni tushunishga ham yordam beradi. Modullar yordamida talabalar adabiyotning turli yo'nalishlarini o'rganib, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni yaxshi anglab olishadi. Har bir modul o'z ichiga ma'lum bir madaniyat va tarixiy davrni olib keladi, bu esa talabalarga o'sha davrning dunyoqarashini tushunishga yordam beradi.



Adabiyot fanining tabiatini o'quvchini o'z fikrini erkin ifoda eta olish, obrazlarni tahlil qilish, ijtimoiy-ma'naviy g'oyalarni anglashga o'rgatadi. Modulli ta'lismayda aynan shu jarayonni individual yondashuv asosida qo'llab-quvvatlaydi. Har bir o'quvchi o'z qiziqishi, bilim darajasi va tezligiga qarab moduldagi topshiriqlarni bajara oladi. Bu esa sinfda differensial yondashuvni ta'minlaydi. Masalan, "Alpomish" dostoni moduli quyidagicha tuzilishi mumkin:

1. Nazariy qism: Dostonning yaratilish tarixi, asosiy g'oyasi. Bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga doston haqida tushuncha beradi, "Alpomish" dostoning yaratilish bosqichlari, turlari, turli xalqlardagi ushbu doston turkumiga kiruvchi yana qanday dostonlar mavjudligi haqida maruza qilib beriladi.

2. Tahliliy topshiriq: Obrazlar xarakteristikasi, muallif mahoratini olib berish. Bunda dostondagi qahramonlar sanab chiqiladi va qahramonlari xarakteridagi ko'zga tashlanadigan jihatlar e'tirof etiladi. Topshiriqlar orqali ulardagi salbiy va ijobiy qarashlar aniqlanadi.

3. Ijodiy ish: O'quvchining shaxsiy munosabati, zamonaviy hayot bilan bog'lash. Bunda dostondagi qahramonlar taqdiri va bugungi kundagi yoshlar qarashlar muhokama qilinadi. Ushbu usul o'quvchida dostondagi qahramonlarning g'oyalarini chuqur anglash va eslab qolishlariga yordam beradi.

4. Baholash va refleksiya: Testlar, ochiq savollar va o'z-o'zini baholash varaqasi. Dars so'ngida o'quvchilar bilimi baholanadi va bunda modulli ta'lismayda texnologiyasi yordamida olingan bilimlarning naqadar shaffofligi aniqlanadi.

Modulli ta'limga olib kelgan adabiyot fanidagi muhim jihat shundaki, u o'quvchining ichki dunyosiga kirish, badiiy asar orqali hayotiy haqiqatni anglashga undaydi. O'qituvchi esa bu jarayonda kuzatuvchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi, har bir moduldagi topshiriqlarni individual darajada nazorat qiladi va kerakli maslahatlar beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, modulli yondashuv orqali adabiyot darslarida ko'proq tanqidiy fikrlash, ijodiy yozuv, sahna ko'rinishlarini yaratish kabi faol metodlar joriy etilishi mumkin. Bu esa o'quvchilarni faqatgina bilim olish emas, balki uni amaliyatda qo'llashga, ijtimoiy-axloqiy masalalarda mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi.

Bugungi tez sur'atlар bilan o'zgarib borayotgan ta'lismayda an'anaviy dars berish metodlari bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish o'ta dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, adabiyot fanini o'qitishda modulli ta'lismayda texnologiyasi orqali o'quvchilarni faol va mustaqil fikrlashga, estetik hamda axloqiy qadriyatlarni anglab yetishga yo'naltirish imkoniyati kengaymoqda. Mazkur maqolada adabiyot darslarida modulli ta'lismayda texnologiyasining samaradorligi, uni tatbiq etishning afzalliklari, metodik yondashuvlari hamda real o'quv jarayoniga ta'siri keng tahlil qilindi. Modulli ta'lismayda texnologiyasi mohiyat e'tibori bilan o'quv jarayonini tizimli, bosqichma-bosqich va maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi. Bu texnologiya asosida tuzilgan har bir modul mustaqil didaktik birlik bo'lib, unda aniq maqsadlar, o'quv topshiriqlari, baholash mezonlari va metodik ko'rsatmalar mujassam



bo'ladi. Ayniqsa, adabiyot fanida har bir mavzu – asar muallifi, zamonasining ijtimoiy-madaniy konteksti, janr xususiyatlari, badiiy tahlil elementlari kabi murakkab qatlamlarni qamrab olgani bois, modulli yondashuv yordamida bu ma'lumotlar bosqichma-bosqich, o'quvchining qobiliyatiga mos ravishda yoritilishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Adabiyot darslarida modulli ta'lim texnologiyasining afzalliklaridan biri – o'quvchilarining individual imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda ularni faollikka undashi, mustaqil fikrlash, izlanish, baholash, tanqidiy mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirishidir. Har bir modulda o'quvchilar o'zlarini belgilangan maqsadga erishish uchun o'quv topshiriqlarini bajarar ekanlar, o'z ta'lim jarayoniga mas'uliyat bilan yondashishni o'rganadilar. Bu esa an'anaviy dars shaklidan farqli o'laroq, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yangi, demokratik va hamkorlikka asoslangan aloqalarni vujudga keltiradi. Modulli ta'limda adabiyot fanining asosiy maqsadi – o'quvchining badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyati kengayadi. Masalan, darsda "Alpomish" dostonini o'rganishda bir modul milliy qadriyatlarni ochib berish, ikkinchisi esa dostonning badiiy tili, obrazlar tizimi, ramziylik kabi jihatlarni tahlil qilishga bag'ishlanadi. Ushbu modullar orqali o'quvchilar faqat asarni o'rganmay, balki u orqali tarix, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, til boyligimiz bilan ham tanishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dewey. J. Experience and Education.- New York: Macmillan, 1938.
2. Falsario, H. N., va boshqalar Modular Instruction Enhances Learning in Tertiary Level.- Journal of Education and Practice, 2011.
3. Niyozova. S. Adabiyot fanida modulli ta'lim yondashuvining afzalliklari.- Zamonaviy ta'lim texnologiyalari ilmiy-amaliy to'plami, 2022.
4. Qodirov. A. Ta'lim jarayonida modulli texnologiyaning o'rni va ahamiyati. - Ilmiy-amaliy pedagogik jurnali, 2019.
5. Richards, J. C. Curriculum Development in Language Teaching. - Cambridge University Press, 2001.
6. Sejpal, D. Modular Approach in Teaching. International Journal for Research in Education, Volume 2, Issue 2, 2013.
7. Tursunov. B. . Modul asosida ta'lim tashkil etishning metodik asoslari.- O'zbekiston ta'limi jurnali, 2021 №6, 88–91-betlar.
8. Vygotsky. L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.- Harvard University Press, 1978.
9. Xasanboyeva. M. O'zbek adabiyotini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari.- Pedagogik izlanishlar jurnali, 2020.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'limda fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha tavsiyalar.- Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5-7-SİNFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RİY ASARLARNING BADIY TİL XUSUSİYATLARİNİ O'RGATİSH METODİKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MİSOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSİON YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SİFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKİSTON VA TURKIYA TA'LIM TİZİMİ MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

